O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DJURAXOLOVA BAHORA KURBONBOYEVNA

GENDERGA OID FRAZEOLOGIZMLARDA KONSEPTUAL METAFORANING VOQELANISHI (NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 811.112.2’373.346.2

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Djuraxolova Bahora Kurbonboyevna
Genderga oid frazeologizmlarda konseptual metaforaning voqelanishi (nemis va o‘zbek tillari misolida)……..3

Джурахолова Бахора Курбонбоевна
Реализация концептуальных метафор в гендерно-маркированных фразеологизмах (на примере немецкого и узбекского языков)…….27

Djurakholova Bahora Kurbonboevna
The realization of conceptual metaphors in gender-marked phraseologisms (on the example of German and Uzbek languages)……..53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……58

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

DJURAXOLOVA BAHORA KURBONBOYEVNA

GENDERGA OID FRAZEOLOGIZMLARDA KONSEPTUAL METAFORANING VOQELANISHI (NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1PhD/Fil5667 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ergasheva Guli Ismoil qizi** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qodirova Fazilat Shukurovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Nazarov Sardor Hasanovich filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «_____»_____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21- A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «_____»_____ kuni tarqatildi.

(2026-yil «____» _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi.)

A.A.Nasirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida metafora fenomenini o‘rganish ma’lum bir millatning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashda muhim vazifadir. Metafora doimiy ravishda falsafa, adabiyot va lingvistika markazida bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, uning frazeologik diskurs amaliyotidagi faol o‘rganilishi bir qator savollarni keltirib chiqaradi. Ushbu savollarga javoblarni an’anaviy metafora o‘rganish nuqtai nazaridan olish qiyin, chunki metafora ko‘pincha til bezaklari sifatida ko‘rib chiqiladi. Antropotsentrik paradigmada esa metafora madaniy-fon asosidagi til tasavvuri xususiyatlarini ifodalash va hatto bilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu mavzu bo‘yicha qiyosiy tilshunoslik, korpus lingvistika va kognitiv tilshunoslik kabi sohalar rivojlanib, jahon tilshunosligida muhim ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida genderga oid frazeologizmlarda konseptual metaforaning voqelanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Nemis tili amaliyotida gender tilshunosligi kesimida samarali izlanishlar olib borilgan va bu ilmiy izlanishlar doimiy yangilanib borilayotganligini kuzatish mumkin. Zero, metafora nafaqat uning yaratilishi mexanizmi nuqtai nazaridan, balki til birligi sifatidagi faoliyati nuqtai nazaridan ham qiziqish uyg‘otadi. Ushbu tadqiqot kognitiv paradigma doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda til shakli kognitiv strukturalarning aks etishi sifatida qaraladi. Shunga ko‘ra kognitiv jarayon va til strukturalari orasida aniq bog‘lanishlarga asoslangan metaforaning umumiy kognitiv mexanizm sifatida tadqiq etish, inson ongida ro‘y beradigan va atrof-muhitni aks ettirish va tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan kuzatib bo‘lmaydigan hodisalarni o‘rganish, inson ongida shakllanadigan va real dunyoni aks ettiradigan konseptual tizimlarga muayyan madaniyat vakillari uchun yetarlicha umumiy bo‘lgan konseptual dunyo manzaralarini shakllantirishga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqotlarni olib borish dolzarblik kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida zamonaviy jamiyatni isloh qilish jarayonida mamlakatimizda ma’naviy, milliy-madaniy va umumbashariy omillarni hisobga olgan holda, fan va ta‘lim sohasida “xorijiy tillarni o‘rganishni ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirishga” alohida e‘tibor qaratilmoqda. Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va sotsiolingvistika sohalarida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish tez sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga, kognitiv lingvistika til tuzilishini o‘rganishning asosiy obyekti bo‘lganligi sababli, tilni, uning boy metafora fondini inson va dunyo qarashini tushunish uchun konseptual va milliy-madaniy vosita sifatida o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

Mazkur dissertatsiya ishi ma’lum darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni № PF-5847 “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”[1] 2019-yil 8-oktabrda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni № PF-5117

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish choralari to‘g‘risida” gi PQ-5117 Qarori./ https: //lex.uz/docs/-5431845.

“O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganishni kengaytirish bo‘yicha faoliyatni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-mayda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori № PQ-2909 “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-aprel O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori № 610 “Ta‘lim muassasalarida xorijiy tilni o‘rganish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 11-avgustda qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Frazeologik birliklar tilshunoslikda uzoq yillardan buyon mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib kelinmoqda. Xususan, o‘zbek frazeologiyasining nazariy va amaliy asoslari Y.D. Polivanov, Sh.U. Rahmatullayev, Y.D. Pinxasov, A.Sh. Shomaqsudov, A. Bushuy, M. Umarxodjayev, A. Yaxshiyev, Z.Sadikov, A.E. Mamatov, B. Yo‘ldoshev, Sh. Imyaminova, G.M. Umarjonova, H.T. Nurullayev va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan[2].

Hozirgi zamon tilshunosligida metafora faqat stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining konseptual modeli sifatida ham talqin qilinadi. Bu yo‘nalishning nazariy asoslari E. Kassirer, M. Blek, J. Lakof va M. Jonson, N.D. Arutyunova, A.N. Baranov, A.P. Chudinov, N.N. Boldyrev, R. Dirven, G. Radden, A. Ziem, E. Zima va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ishlab

[2] Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедов. –Москва: Издательство Юрайт, 2019. – С. 233.; Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. Автореф. дис. канд. филол. наук. – М.: 1952. – С. 16.; Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимджана. Автореф. дис. канд. филол. наук. –Ташкент, 1953. – 19 с.; Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Мукими (лексика и фразеология). Автореф. дис. канд. филол. наук. –Ташкент, 1956. -18 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1976. – Вып. IV. – С. 300.; Бушуй А.М. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1979. – Вып. V. – 245 с.; Бушуй А.М. Библиографический указатель по фразеологии: Основные вопросы теории фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1987. –Вып. 6. – С. 236.; Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati – Toshkent, 1992; Умарходжаев М.И. Очерки по современной фразеологии. – Ташкент, 1977.- С. 103 .; Umarxo‘jayev M. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari. – ADPU, 2014; Yaxshiyev A.A. Nemis tili og‘zaki nutqi tizimida frazeologik birliklarning semantik-diskursiv maqomi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021. – 79 b.; Sadikov Z.Y. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 65.; Umarjonova G.M. Nemis va o‘zbek tillaridagi “Hand” “qo‘l” komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2022. – B. 53.; Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. Samarqand: SamDU nashri, 2007. – B. 108.; Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Fil.f.dok...dis.: 10.02.02. O‘zb.FA Tilshunoslik instituti, – T., 1991, -B. 270; Mamatov A.E. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. – Toshkent, 2018, – B.100; Mamatov A.E. Frazeologik birliklarning semantik- tematik va uslubiy tahlili. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2020, -B. 136; Имяминова Ш. С. Немис тили фразеологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – Б. 3.; Nurillayev H.T. Nemis va o‘zbek tillari somatik frazeologizmlarining lingvomadaniy xususiyatlari. Filol.fan. nom. diss. ... avtoref. – Toshkent: 2023. – B. 8.

chiqilgan.[3] Ularning ilmiy ishlarida metaforaning kognitiv tabiati, konseptual tuzilishi hamda til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlari tahlil qilingan. Xususan, E. Zima, H. Skirl va M. Schwarz-Friesel[4] metafora orqali gender stereotiplari va madaniy konseptlarning ifodalanishini tadqiq etganlar.

O‘zbek tilshunosligida metafora va uning lingvomadaniy hamda kognitiv xususiyatlari D.U. Ashurova, D. Xudoyberganova, G.I.Ergasheva, D.K.Baxronova, A.G.Yuldashev, N.Z. Normurodova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.[5]

Biroq mavjud tadqiqotlarda frazeologik birliklarda ifodalangan metaforalarning konseptual xususiyatlari hamda ularning gender aspektida qiyosiy-kognitiv tahlili yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu jihatdan mazkur tadqiqot nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarda genderga oid konseptual metaforalarni qiyosiy-kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilishi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek tillarining genderga oid frazeologizmlarda konseptual metaforaning voqelanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Ushbu tadqiqot quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid maqollar hamda frazeologik birliklarning lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash, konseptual metaforaning olamning frazeologik manzarasini shakllantirishdagi o‘rnini nazariy asoslash

---

[3] Кассирер Э. Теория метафоры. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 33-43.; Блэк М. Метафора // Теория метафоры / Отв. ред. Н.Д. Арутюнова. Москва: Прогресс, 1990. – С. 112.; McCormak E. A cognitive theory of metaphor. – Cambridge, Mass. : MIT Press, 1985. – P. 295.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 125.; Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры: Сборник. – Москва: Прогресс, 1990. – С. 5-32.; Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. Учебник. – Москва: Эдиториал, 2003. – С. 41.; Чудинов. А.П. Политическая лингвистика. – Москва: Флинта, 4-е изд. 2012. – С. 12.; Болдырев Н.Н. Когнитивные схемы языковой интерпретации // Вопросы когнитивной лингвистики, 2016, 4-выпуск. – С. 11.; Ziem. A. Konstruktionsgrammatik: Konzepte und Grundlagen gebrauchsbasierter Ansätze. – Berlin, Boston: de Gruyter, 2013. – 17 S.; Zima E. Einführung in die gebrauchsbasierte Kognitive Linguistik. – Berlin, Boston: De Gruyter, 2021. – S .36.; Wolf H.G ., Polzenhagen F. A Cognitive Sociolinguistic Approach (Applications of Cognitive Linguistics book 8). – Berlin: Mouton De Gruyter, 2012. – P. 36.

[4] Zima E. Einführung in die gebrauchsbasierte Kognitive Linguistik. – Berlin, Boston: De Gruyter, 2021. – S .36.; Wolf H.G ., Polzenhagen F. A Cognitive Sociolinguistic Approach (Applications of Cognitive Linguistics book 8). – Berlin: Mouton De Gruyter, 2012. – P. 36.; Skirl H., Schwarz-Friesel M. Metapher. Kurze Einführungen in die germanistische Linguistik. Band 4. – Heidelberg: Universitaetsverlag Winter, 2013. – S. 78.

[5] Ashurova D.U., Galiyeva M. R. Stylistics of literary text. – Tashkent: Turon-iqbol, 2013. – P. 37.; Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. – B. 13.; Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va maqollarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent: 2011. – B. 108.; Baxronova D.K. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari. (o‘zbek va ispan tillari materiallarida) Filol.fan. nom. diss. ... avtoref. – Toshkent: 2017. – B. 22.; Yuldashev A. G. . Cognitive aspect of the uzbek idiomatic words and their equivalents in English // Philology Matters, 2019, № 2. – P. 7.; Нормуродова Н.З. Теоретические вопросы антропоцентризма в контексте развития современной лингвистической науки // Бюллетень науки и практики, 2021, 4-выпуск. – С. 386.

hamda “Tenglik va tengsizlik”, “Tarbiya va odat”, “Oila” tematik guruhlari doirasida erkaklik va ayollik obrazlarining ijtimoiy-madaniy stereotiplarda ifodalanishini chog‘ishtirma-semantik va stilistik tahlil qilish;

nemis va o‘zbek tillarida ayol konseptining hayvon nomlari va obrazlari orqali metaforik ifodalanish xususiyatlarini aniqlash, zoonimik komponentli frazeologik birliklarda giperonim-giponim munosabatlari, konnotativ ma’nolar hamda kontekstual-semantik xususiyatlarni tahlil qilish asosida ayol shaxsiga nisbatan ijobiy va salbiy baholovchi munosabatlarning lingvokognitiv hamda lingvomadaniy jihatlarini ochib berish;

nemis va o‘zbek tillarida erkak konseptining hayvon obrazlari asosida konseptual metaforalar va komparativ frazeologik birliklarda voqelanishini aniqlash, zoonimik komponentli iboralarda erkak obraziga xos ijobiy va salbiy baholash, konnotativ ma’nolar hamda milliy-madaniy xususiyatlarni qiyosiy-semantik va kontekstual tahlil asosida yoritish;

nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning assotsiativ xususiyatlarini aniqlash, “ayollik” va “erkaklik” konseptlarining metaforik ifodalanishidagi universal hamda milliy-madaniy jihatlarni chog‘ishtirma tahlil va empirik usullar asosida ochib berish, shuningdek, mazkur metaforalarda gender stereotiplarining shakllanishi va til orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini asoslash;

Tadqiqotning obyekti sifatida nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologik birliklar va maqollar, hamda ularda voqelangan konseptual metaforalar tanlangan.

Tadqiqot predmetini nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologik birliklarning lingvokognitiv hamda milliy-madaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvomadaniy, statistik usul, qiyosiy-tipologik, chog‘ishtirma, kross-madaniy va kognitiv modellashtirish, kontekstual-semantik, konseptual-metaforik va miqdoriy-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o’zbek va nemis tillaridagi genderga oid maqollar hamda konseptual metaforalarni chog’ishtirma-stilistik tahlili asosida “Tenglik va tengsizlik”, “Tarbiya va odat”, “Oila” tematik guruhlari doirasida erkaklik va ayollik obrazlarining konseptuallashuvi, ularga xos ijtimoiy rollar, qadriyatlar va baholovchi munosabatlarning paremiologik birliklarda aks etishi, gender stereotiplarining metaforik modellar orqali shakllanishi va milliy-madaniy jihatdan farqlanish xususiyatlari asoslangan;

o’zbek va nemis tillaridagi hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarda ayol obrazining zoomorf metaforalar vositasida konseptuallashuvi, zoonimlarning giperonimik-giponimik munosabatlari va konnotativ ma’nolari o’rtasidagi semantik bog’liqlik, hayvonlarga xos belgilarning insonga ko’chirilishi orqali ayolga nisbatan ijobiy va salbiy baholovchi munosabatlarning shakllanish mexanizmlari kontekstual-semantik va qiyosiy-lingvomadaniy tahlil asosida dalillangan;

o’zbek va nemis tillarida erkak konseptining zoomorf metaforalar orqali ifodalanishi, hayvon nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarda erkak obraziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlarning metaforik ko’chish, semantik qayta talqin va lingvomadaniy baholash mexanizmlari orqali voqelanishi qiyosiy-semantik va kontekstual tahlil asosida aniqlanib, mazkur metaforalarning gender stereotiplarini shakllantirish va aks ettirishdagi vazifalari, universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari, ikki tildagi semantik va lingvomadaniy mushtaraklik hamda farqli jihatlari aniqlangan;

konseptual-metaforik tahlil va miqdoriy-statistik usullar asosida nemis va o’zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari, “ayollik” va “erkaklik” konseptlarining respondentlar lisoniy ongidagi metaforik reprezentatsiyasi, assotsiativ bog’lanishlarda gender stereotiplarining namoyon bo’lishi hamda mazkur konseptlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlari empirik jihatdan dalillangan;

Tadqiqot ishining amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalarining amaliy tatbiqi sifatida nemis va o‘zbek tillarida gender konseptining metaforik ifodasini aks ettiruvchi frazeologik birliklar hamda maqollar jamlanib, ularning semantik, metaforik va lingvomadaniy xususiyatlari asosida “Nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid metaforik izohli lug‘at” yaratildi;

tadqiqot jarayonida nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologizmlar hamda ular bilan mazmunan yaqin bo‘lgan maqollar tanlab olindi va tahlil qilindi. Frazeologik birliklar va maqollar erkak va ayol obrazlarini ifodalovchi til birliklari sifatida alohida guruhlarga ajratildi. Ushbu birliklar orqali gender tushunchalarining tilda qanday baholanishi va obrazli tarzda ifodalanishi amaliy misollar asosida ko‘rsatib berildi;

tadqiqotda frazeologizmlar va maqollarning ma‘nosi, baholovchi xususiyati hamda obrazliligi izchil tahlil qilindi. Nemis va o‘zbek tillaridagi birliklar qiyosiy jihatdan solishtirilib, ular orqali erkak va ayolga xos sifatlarning qanday ifodalanishi aniqlashtirildi. Natijada har ikki tilda genderga oid stereotiplar va ijtimoiy qarashlarning til birliklarida aks etishi amaliy tarzda ochib berildi;

tadqiqot natijasida nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologizmlar va maqollarni qiyosiy tahlil qilish uchun qulay bo‘lgan amaliy materiallar majmuasi shakllantirildi. Ushbu materiallardan chet tilini o‘qitish, xususan, nemis tilini o‘rgatish jarayonida, frazeologiya va paremiologiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish mumkinligi ko‘rsatildi;

tadqiqot davomida genderga oid frazeologizmlar va maqollarning tarjimasida uchraydigan muammolar aniqlanib, ularni hal etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, ayrim birliklarning boshqa tilda to‘liq muqobili mavjud bo‘lmagan hollarda ularning ma’no izohlash yoki mazmunan yaqin variantlardan foydalanish zarurligi asoslab berildi;

tadqiqotning muhim amaliy natijalaridan biri sifatida genderga oid frazeologizmlar va maqollarning nutqdagi baholovchi va tarbiyaviy ahamiyati yoritildi. Bu birliklarning kundalik nutqda va madaniyatlararo muloqotda to‘g‘ri qo‘llanishi bo‘yicha tavsiyalar berildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, genderga oid frazeologizmlarda konseptual metafora voqelangan, obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar kontekstual, komponent, distributiv va struktur semantik tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalarning nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologik birliklar va maqollarda konseptual metaforalarning voqelanish xususiyatlari, ularning gender stereotiplari hamda milliy-madaniy tafakkur bilan bog‘liqligiga doir nazariy qarashlarni boyitishi, shuningdek, konseptual metafora orqali **AYOL** va **ERKAK** obrazlarining kognitiv hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishi bilan frazeologiya, paremiologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologik birliklar va maqollarning chog‘ishtirma tahlili, ularning konseptual-metaforik hamda lingvomadaniy xususiyatlariga doir natijalardan “Frazeologiya”, “Leksikologiya”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik” kabi fanlarni o‘qitish va maxsus kurslarni tashkil etishda, shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanma, frazeologik lug‘at va glossariylar yaratishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Nemis va o‘zbek tillarida genderga oid frazeologizmlarda konseptual metaforaning voqelanishini tadqiq etishdan olingan natijalar asosida:

o’zbek va nemis tillaridagi genderga oid maqollar hamda konseptual metaforalarni chog’ishtirma-stilistik tahlili asosida “Tenglik va tengsizlik”, “Tarbiya va odat”, “Oila” tematik guruhlari doirasida erkaklik va ayollik obrazlarining konseptuallashuvi, ularga xos ijtimoiy rollar, qadriyatlar va baholovchi munosabatlarning paremiologik birliklarda aks etishi, gender stereotiplarining metaforik modellar orqali shakllanishi va milliy-madaniy jihatdan farqlanish xususiyatlariga doir xulosalardan Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yil 5-martdagi 04/1-1238 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, o’zbek va nemis tillaridagi maqollar orqali tilning lingvokognitiv xususiyatlari va frazeologik manzarasi yoritilib, konseptual metaforalarning shakllanishi, ifodalanishi va ularning nazariy tadqiqini chuqur o’rganish imkoniyati kengaytirilgan;

o’zbek va nemis tillaridagi hayvon nomlari ishtirok etgan frazeologik birliklarda ayol obrazining zoomorf metaforalar vositasida konseptuallashuvi, zoonimlarning giperonimik-giponimik munosabatlari va konnotativ ma’nolari o’rtasidagi semantik

bog’liqlik, hayvonlarga xos belgilarning insonga ko’chirilishi orqali ayolga nisbatan ijobiy va salbiy baholovchi munosabatlarning shakllanish mexanizmlari kontekstual-semantik va qiyosiy-lingvomadaniy tahlilidan olingan xulosalar Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetida “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google Translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi o’zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 15-noyabrdagi 04/1-5530 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada nemis va o’zbek tillaridagi gender komponentli maqollarda konseptual metaforalarning, shuningdek gender stereotiplarining konseptual metaforalarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash imkoniyati berilgan;

o’zbek va nemis tillarida erkak konseptining zoomorf metaforalar orqali ifodalanishi, hayvon nomlari ishtirokidagi frazeologik birliklarda erkak obraziga xos ijobiy va salbiy xususiyatlarning metaforik ko’chish, semantik qayta talqin va lingvomadaniy baholash mexanizmlari orqali voqelanishi qiyosiy-semantik va kontekstual tahlil asosida aniqlanib, mazkur metaforalarning gender stereotiplarini shakllantirish va aks ettirishdagi vazifalari, universal hamda milliy-madaniy xususiyatlari, ikki tildagi semantik va lingvomadaniy mushtaraklik hamda farqli jihatlariga doir xulosalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 16-iyundagi 04/2593-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada frazeologik birliklar orqali madaniyatlararo tafakkurni chuqur anglash, til va madaniyat o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni tahlil qilish ko’nikmalari rivojlantirilgan;

konseptual-metaforik tahlil va miqdoriy-statistik usullar asosida nemis va o’zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari, “ayollik” va “erkaklik” konseptlarining respondentlar lisoniy ongidagi metaforik reprezentatsiyasi, assotsiativ bog’lanishlarda gender stereotiplarining namoyon bo’lishi hamda mazkur konseptlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlari empirik jihatdan shakllanishiga doir xulosalardan O’zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (O’zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 1-martdagi 11-25/120 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, nemis va o’zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning lingvomadaniy xususiyatlarini assotsiativ yondashuv asosida aniqlash imkoniyati yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 5 ta xalqaro ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, 5 tasi xorijiy jurnalda e‘lon qilingan.

Tadqiqot ishida nemis tilidan 60 ta genderga oid frazeologik birlik va 85 ta maqol, o‘zbek tilidan esa 60 ta genderga oid frazeologik birlik va 85 ta maqol, jami 290 ta til birligi tahlilga tortildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashqari 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Frazeologik olam manzarasi lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida maqollar va ularga jahon va o‘zbek tilshunosligida berilgan ta‘riflar, konseptual metafora, kognitiv metafora nazariyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganilgan hamda munosabat bildirilgan. Shuningdek, genderga oid metaforani tadqiq qilishda kognitiv – semantik yondashuv, metodologik asoslar va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. O‘zbek va jahon tilshunoslarining frazeologik birliklarni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan olib borgan ilmiy izlanishlari tadqiq etilib, ularning milliy madaniyat va dunyoqarashni aks ettirishdagi o‘rni aniqlangan.

Olam lisoniy manzarasining yaralishi va aks etishida tilning, ayniqsa, lug‘at boyligi, ya‘ni leksik (frazeologik) sathning alohida o‘rin tutishini ta‘kidlash joiz. Shu bilan birga frazeologizmlar mohiyat asosan, so‘zlashuv va badiiy nutq mevasidir. O‘zbek tilshunosligiga ko’ra, frazeologik birlik (ibora, frazema, frazeologik ifoda) strukturasi va tarkibi barqaror bo‘lgan semantik butunlikka ega tayyor nutq birligi bo‘lgan va leksik jihatdan bo‘linmaydigan birlik hisoblanadi.[6] Chunonchi, birgina *o‘lmoq* leksemasining ma’no anglatadigan yuzga yaqin frazeologizm (evfemizm)lar sinonimik qatorining paydo bo‘lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug‘diradi. Masalan, bu qatorga kiradigan *olamdan o‘tmoq, dunyodan o‘tmoq, omonatini topshirmoq, qulog‘i ostida qolmoq, jon bermoq so‘zlashuv uslubida ishlatilsa, vafot etmoq, hayotdan ko‘z yummoq, dunyodan ko‘z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yo‘l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganishda A. Bushuy, M. Umarxodjayev, A. Yaxshiyev, Z. Sadikov, Sh. Imyaminova, A. Mamatov va

[6]Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frzaeologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1978. – B. 76.

G. Umarjonova[7]ning ilmiy qarashlari muhim o‘rin tutadi. Ular frazeologik birliklarni semantik jihatdan yaxlit, turg‘un va nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan mustaqil til birliklari sifatida talqin etadilar. Tadqiqotlarda frazeologizmlarning struktur-semantik xususiyatlari, uslubiy va pragmatik vazifalari, tarjima muammolari hamda milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi o‘rni keng yoritilgan. Olimlar frazeologizmlarni xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita sifatida baholaydilar.

Nemis tilshunosi W. Fleischer[8] *frazeologiya* atamasi ikki qo‘shimcha ma’noda ham ishlatilishini qayd etdi: 1. Tilshunoslikning alohida yo‘nalishi bo‘lib, frazeologik birliklarni o‘rganuvchi ilmiy soha. 2. Muayyan tilning frazeologik tizimi yoki boyligi, ya‘ni shu tildagi barcha barqaror iboralar majmuidir. Shuningdek frazeologiya sohasida V. Vinogradov[9]ning ham ishlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘z klassifikatsiyasi orqali sohaning ilmiy asosini yaratdi. 1970-yilda I. Chernysheva[10] tomonidan nemis tilida frazeologiyaning ilk umumiy tavsifi ishlab chiqilgan va mustaqil fan sifatida qaralgan, Germaniyada esa 1990-yillargacha frazeologiya leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning tadqiqi masalasi ancha yillardan buyon tilshunoslar e‘tiborini tortib kelmoqda. Bugungi kungacha frazeologiya sohasida Sh.Raxmatullaev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.Rafiyev, Sh.Almamatova va boshqa tilshunoslarning xizmatlari katta.[11] Ular o‘z tadqiqotlarida frazeologizmlarning ma‘no xususiyatlari, shakl va ma‘no munosabatlari borasida maxsus monografik ishlar olib borishi bilan birga, o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug‘atini yaratib, o‘zbek frazeologiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan.

Tadqiqot ishida frazeologik birliklarning bir qismi bo‘lgan, mavhum tushunchalarni anglash uchun ishlatiladigan konseptual metafora haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Turli tillarda bir xil metaforalarni idrok etish asosida

---

[7]Бушуй А.М. Библиографический указател по фразеологии: Основные вопросы теории фразеологии. – Самарканд: СамГУ, 1987. – Вып. 6. – С. 236.; Umarxo‘jayev M. Chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik muammolari. – ADPU, 2014.; Yaxshiyev A.A. Nemis tili og‘zaki nutqi tizimida frazeologik birliklarning semantik-diskursiv maqomi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021. – B. 79.; Sadikov Z.Y. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining nemischa va inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 65.; Имяминова Ш. С. Немис тили фразеологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – Б. 3.; Mamatov A.E. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. – Toshkent, 2018, – B.100.; Umarjonova G.M. Nemis va o‘zbek tillaridagi “Hand” “qo‘l” komponentli frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg‘ona, 2022. – B. 53.

[8] Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1997. – S. 4.

[9] Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва.: 1977. – С. 140-161.

[10] Чернышева И. И. Фразеология современного немецкого языка: фразеология как система и ее связь с системой лексики: дисс... док. филол. наук. – Москва, 1964. – С. 107.

[11] Rahmatullaev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022. – B. 16.; Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususyatlari: Filol. fan. dokt.diss… avtoref. – Toshkent, 1993. – B. 45.; Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari: Filol. fan. dokt. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 23.; Рафиев Р. Структурно-функциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка : дисс ... канд. филол. наук: –Ташкент, 1982. – С. 133.; Almamatova Sh. Mustaqil bo‘lmagan so‘zlarning frazemalar tarkibida qo‘llanilishi // O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 286.

qo‘llash davomiyligi konseptual sohalar o‘rtasidagi xaritalash miyadagi neyron xaritalarga mos keladi, degan gipotezaga olib keldi[12]. Masalan, vaqtni makon tushunchalari yordamida tasavvur qilish (*oldinga siljish, orqaga qaytish*) - bu idrokda konseptual maydonlar o‘rtasidagi xaritalashning amaliy ko‘rinishidir. Bu jarayonlarni batafsil o‘rganish ilk bor J. Lakof va M. Jonson tomonidan 1980 yilda “Metaphors we live by”[13] asarida keng tadqiq qilingan.

Konseptual metafora faqat alohida ibora yoki obraz sifatida emas, balki konseptual ierarxiyalarga tayanadigan kognitiv tuzilma sifatida ham namoyon bo‘ladi. Quyida besh asosiy tamoyil bayon qilinadi.

1. Ierarxik tizimlar asosida tashkil topgan metaforalar. Bu holatda konseptual metaforalar umumiy (abstrakt) darajadagi tushunchalarning xususiy holatlari sifatida ifodalanadi. Masalan, nemis tilida: *Er kocht vor Wut (U g‘azabdan qaynaydi); Sie platzt gleich vor Zorn (U g‘azabdan portlaydi); Mir steigt die Wut hoch[14] (G‘azab ichimdan ko‘tarilyapti).* O‘zbek tilida: *g‘azab - bu issiq suyuqlik (U g‘azabdan qaynab ketdi)*. Bu metaforada *issiq suyuqlik* - manba domeni bo‘lib, *hissiyot* - maqsad domenidir. Bunda yanada aniqlashtirish orqali “kuyish” metaforasini ham hosil qiladi. *G‘azab - bu kuyish (U g‘azabdan kuyayotgan edi).*

2. Umumiy tushunchaning turli metaforalar orqali konseptuallashtirilishi. Ba‘zi hollarda bitta abstrakt tushuncha turli manba domenlari orqali har xil metaforik tasvirlarda ifodalanadi. Sevgi konsepti quyidagicha farqli metaforalar orqali ifodalanadi: Masalan, nemis tilida: *Liebe – Feuer, (Sevgi – olov, issiqlik,).* Bu metafora sevgini yonuvchi ichni kuydiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. (*vor Liebe brennen (sevgidan yonmoq; in Flammern stehen (muhabbatdan alangalanmoq); die Liebe entfachen (sevgi olovini yoqmoq)).* Ya‘ni, sevgi – energiya va issiqlik manbai bo‘lib, u insonning ichki dunyosini *yoqadi, qizdiradi* va *harakatga keltiradi*. Bu holatda umumiy tushuncha *sevgi* turli metaforalar orqali (olov, issiqlik, alangalanish) sensor-fiziologik tajriba asosida konseptuallashtirilgan. O‘zbek tilida: *Sevgi - tabiiy kuch (Men sevgini yengdim.) Sevgi – shamol/bo‘ron (Bu bo‘ronli romantika edi)*. Bu holatda sevgi tushunchasi har xil manba sohalari orqali metaforik jihatdan ko‘p shaklda modellashtiriladi, ya‘ni konseptual jihatdan turlicha ifodalanadi.

3. Bir necha mavhum tushunchaning umumiy jihatini ifodalovchi ko‘p darajadagi metaforalar. Bunday holatda turli mavhum konseptlar (masalan, sevgi, g‘azab, qo‘rquv)ning bitta umumiy jihati ierarxik tarzda joylashgan ko‘p sonli aniq metaforalar orqali ifodalanadi. Masalan, nemis tilida: *Wut ist Feuer (g‘azab – olov kabi qaynaydi); Wut ist ein Behälter (g‘ayab ichimizda to‘planadi, portlaydi).* G‘azabning umumiy xususiyati – kuchli ichki energiya va harakatga undash ko‘p darajadagi metaforalar orqali konseptuallashtirilgan. O‘zbek tilida: *sevgi-olov (sevgi ichni kuydiradi); qo‘rquv-qorong‘ulik (qo‘quvni qorong‘ulik*

[12] CienkiA., Müller C. Metaphor, Gesture, and Thought. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 25.
[13] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. – Chicago.: University Press.1980. –.P. 89.
[14] Duden: Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 2008. – S. 113.

bilan tasavvur qilamiz). Bu misollarda sevgi, qo‘rquv kabi turli hissiyotlarning umumiy xususiyati kuchli ichki ta‘sir va harakatga undash turli metaforalar orqali ifodalangan.

4. Maqsad maydonning ierarxik tizimga aloqadorligi. Bu yerda konseptual metaforalar o‘zaro tizim hosil qiladi, chunki ular bir xil semantik toifaga tegishli bo‘lgan tushunchalarga asoslanadi. Masalan, nemis tilida: Karriere ist ein Aufstieg *(*kariera - ko‘tarilish*); Er hat eine steile Karriere gemacht (u tez yuqorilashga erishdi).* Bu yerda barcha metaforalar ko‘tarilish, yuqoriga harakat semantik toifasiga tegishli bo‘lib, ierarxik tizim hosil qiladi. O‘zbek tilida: Ierarxik metafora tizimiga misol sifatida hayot-ko’tarilish kabi konseptini keltirishimiz mumkin *(Hayot yo‘li balanddan boshlanadi; U hayotning cho‘qqisiga erishdi; Hayot yo‘lida to‘sqinliklar bor).*[15] Bu misollarda barcha metaforalar “ko‘tarilish”, ”pastga tushish” semantik toifasiga tegishli bo‘lib, ierarxik tizim hosil qiladi.

5. Aniq tushunchaning turli yuqori darajali metaforalarga aloqadorligi. Bu modelda ma‘lum bir aniq darajadagi maqsadli tushuncha (masalan, “sevgi”) turli xil yuqori darajadagi tushunchalarning o‘ziga xos holati sifatida ifodalanadi. Masalan, nemis tilida: *Liebe ist Feuer, Wärme (Er glüht vor Liebe - U sevgi bilan alangalanadi); Liebe ist Kampf (sevgi-kurash); Liebe ist Wasser (sevgi - suv).* Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, *Liebe (sevgi)* bir nechta umumiy konseptual metaforalar tizimi *(Feuer - olov, Kampf - kurash, Wasser - suv)* orqali ifodalanadi. O‘zbek tilida: *Sevgi – olov, issiqlik (Sevgi yuragini kuydirdi); Sevgi – kasallik (sevgi dardiga chalinmoq); Sevgi – suv, dengiz (sevgi ummonida g‘arq bo‘lmoq.* Bu yerda aniq tushuncha “sevgi” bir nechta yuqori darajali metaforalarning (olov, kasallik, suv) kesishgan nuqtasiga aylanadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillar konseptual metafora tizimlarini tuzishda qo‘llaniladigan asosiy mexanizmlarni tavsiflaydi. Bu tizimlar, o‘z navbatida, inson tafakkurining qanday shakllanishi, qanday abstrakt tushunchalar asosida dunyoni idrok etishi va til orqali ifodalashi haqida chuqur tasavvur beradi.

Tadqiqotda maqollarni lingvokognitiv aspektda o‘rganish, ularning semantik tarkibi, kognitiv modellari, konseptual metaforalar va tafakkur jarayonidagi o‘rnini aniqlash ham muhim. Maqollarni lingvokognitiv yondashuv asosida tadqiq qilish J. Lakof va M. Jonson[16], R. Langacker[17], Ch. Filmor[18] kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv tilshunoslik nazariyasiga tayanadi. Lingvokognitiv yondashuvda maqollar inson tafakkurining verbal natijasi sifatida qaraladi. Ular orqali inson real olamdagi voqelikni qanday tushunadi, qanday guruhlarga ajratadi, qanday baholaydi - bularning barchasi tahlil qilinadi.

Metafora va gender muammosini tahlil etishda kognitiv-semantik yondashuv uch asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: 1. identifikatsiya - matnda metaforik ifodalarni aniqlash va ularni semantik jihatdan tasniflash; 2. rekonstruksiya -

[15] Rahmatullaev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2022. – B. 123.
[16] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago.: The University Press, 1980. – P. 120.
[17] Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. – California: Stanford University Press, 1987. – P. 146.
[18] Fillmore Ch. Frames and the Semantics of Understanding//Quaderni di Semantica, № 2, – P. 222–254.

aniqlangan metaforalar asosida qanday konseptual metaforalar shakllanayotganini tahlil qilish; 3. diskursiv tahlil - metaforalarning ijtimoiy-madaniy ma‘nolari, gender stereotiplari nuqtayi nazaridan tahlil etilishi. Nemis olimlari orasida ushbu metodologiyani chuqur o‘rganib, amaliy qo‘llanma sifatida ishlab chiqqan tadqiqotchilardan biri R. Schmit[19] bo‘lib, u “Systematische Metaphernanalyse” (tizimli metafora tahlili) metodini taklif etgan. Bu usul metaforalarni sifat jihatdan chuqur, izchil va ilmiy mezonlar asosida o‘rganishga imkon yaratadi. Bundan tashqari R. Schmit[20] o‘zining “Metaphernanalyse und die Konstruktion von Geschlecht” nomli maqolasida til tizimi orqali jinsga oid ma‘nolarning qanday qo‘llanishi mumkinligini tahlil etadi.

Shunday qilib, kognitiv-semantik yondashuv gender metaforalarni tadqiq etishda nazariy va amaliy jihatdan samarali metod hisoblanadi. U til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish orqali jamiyatdagi gender tuzilmalarni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning tematik guruhlarda voqelanishi”** deb nomlanadi. Konseptual metaforalar ijtimoiy va madaniy kontekstlarda gender tushunchalarini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Konseptual metaforalar gender stereotiplarini tushunishda muhim vosita hisoblanadi. Ular ijtimoiy rollar, emotsional jihatlar va karyera tanlovlari orqali genderga oid tasavvurlarni shakllantiradi. Mazkur tadqiqotda “tenglik va tengsizlik”, “tarbiya va odat”, “oila” kabi tematik guruhlar orqali gender stereotiplarining qanday paydo bo‘lishi va jamiyatda qanday aks etishi haqida chuqurroq fikr-mulohazalar keltirilgan.

O‘zbek tilida genderga oid konseptual metaforalar, ijtimoiy va madaniy kontekstda gender rollarini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisalardir. Ushbu tadqiqotda genderga oid metaforalarning tematik guruhlarda qanday voqelanishi tahlil qilinadi, bu esa jamiyatdagi gender stereotiplarini va ijtimoiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Nemis tilida erkak yetakchi, qaror qiluvchi sifatida, ayol esa uni qo‘llovchi sifatida metaforalashtiriladi. Mann ist Führer; Frau ist Unterstützerin (erkak – boshqaruvchi, ayol – qo‘llab-quvvatlovchi). Ushbu konseptual metaforaga mos keladigan iboralarni ko‘rib chiqamiz: *die hosen anhaben (boshqarmoq) – er hat die Hosen an. (u boshqaradi.); hinter dem Mann stehen (erkak ayolni qo‘llaydi)*; *wie eine Blume sein (guldek nozik bo‘lmoq); eine zarte Frau (nozik ayol);* Frau – Zerbrechlichkeit (ayol – noziklik) *zerbrechlich sein (oson sinadigan ayol bo‘lmoq; Mann – Stärke, Frau – Liebe, Wärme (erkak – kuch, ayol – mehribonlik). stark wie ein Bär sein (ayiqdek kuchli bo‘lmoq); ins Haus Wärme bringen[21] (uyga mehr va iliqlik olib kelmoq).* Shu tarzda metaforalarda gender rollari an‘anaviy

[19] Schmitt R. Systematische Methaphernanalyse als Methode der qualitativen Sozialforschung. – Wiesbaden: Springer Verlag, 2017. – S. 12.

[20] Schmitt R. Metaphernanalyse und die Konstruktion von Geschlecht//Forum: Qualitative Sozialforschung. Vol.12. №.2. 2009. – S. 345.

[21] Duden: Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 2008. – S. 128.

stereotiplarga asoslangan holda kodlanadi, erkak-faol va hukmron, ayol-passiv va qo‘llab- quvvatlovchi shaxs.

Tenglik va tengsizlik tushunchalari, gender munosabatlari kontekstida, nemis va o‘zbek xalq maqollarida o‘z aksini topadi. Masalan, nemis tilida: *Die Frau ist das Rückgrat der Familie*[22] (ayol bor joyda oila mustahkam) maqoli ayollarning oilada va ijtimoiy tuzilmalarda markaziy rolini ta‘kidlaydi. Ushbu maqol ayolning oilaviy muhitda bajaradigan turli vazifalari va mas‘uliyatlari uchun qadrlanishi va tan olinishini aks ettiradi.

Hinter jedem erfolgreichen Mann steht eine starke Frau (Erkakning yuksalishi ayolning qo‘llovi) maqoli ayollarning erkaklar muvaffaqiyatidagi muhim rolini ta‘kidlaydi. Ushbu maqol ayollarning muvaffaqiyatli erkaklar hayotida qanday muhim rol o‘ynashini, ularni ma‘nan qo‘llab-quvvatlash, maslahat va amaliy yordam ko‘rsatishlarini aks ettiradi.

Ein starker Mann ist wie ein Fels in der Brandung (Kuchli erkak to‘lqin ichra qoyadir) maqoli erkakning barqarorligi, kuchi va ishonchliligini ta‘kidlaydigan tasviriy metaforadir. Maqoldagi *„wie ein Fels in der Brandung - to‘lqin ichra qoya “* ramzi qiyin paytlarda ham o‘z o‘rnida turadigan mustahkam va o‘zgarmas, kuchli erkakni ifodalaydi.

Masalan, o‘zbek tilida: *Ayol yerdan chiqqan emas, erkak bolasi. Erkak ko‘kdan tushgan emas, ayol bolasi.*[23] Ushbu maqol o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qiziqarli namunalaridan biridir. Ushbu maqolda ayolning yerdan kelishi, uning hayotga bo‘lgan bog‘liqligini anglatsa, erkaklarning ham inson sifatida tabiiy kelib chiqishi va ayollar bilan tengligini ko‘rsatadi. Bu yerda ko‘kdan tushish metaforik ma‘noda foydalanilgan bo‘lib, erkaklar ham inson sifatida yerda yashaydi. Ushbu maqol ayol va erkak o‘rtasidagi tenglikni ta‘kidlaydi. *Tuya tuzni sevar, yigit – qizni* maqolida tuyaning tuzga bo‘lgan sevgisi kabi, yigitning ham qizga bo‘lgan sevgisi tabiiydir. Maqol tabiiy va adolatli uyg‘unlikni ta‘kidlaydi.

Teng bo‘lmay, duch bo‘lmas. Ushbu maqol ayol va erkak o‘rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy tenglikni anglatadi. Agar ikki tomon teng bo‘lmasa, ularning o‘zaro munosabatlari muvozanatsiz bo‘ladi. Bu, shuningdek, ijtimoiy yoki iqtisodiy tengsizliklar mavjud bo‘lganda, o’zaro tushunmovchiliklar va nizolar paydo bo‘lishini anglatadi.

Navbatda “tarbiya va odat” tematik guruhi ham genderga oid konseptual metaforalarda o‘z aksini topadi. Nemis va o‘zbek tillaridagi maqollar va iboralar ota-onaning farzandga tarbiyaviy ta‘siri orqali gender rollarini shakllantirishni ko‘rsatadi. Masalan, nemis tilida *Wie die Eltern, so die Kinder (Olma daraxtidan uzoqqa tushmaydi) yoki Der Vater lügt, der Sohn betrügt (*Qush uyasida ko‘rganini qilar) maqollari yomon xulq oiladan boshlanishi, ota qanday bo‘lsa, o‘g‘il ham

[22] Beyer H., Beyer A. Sprichwörterlexikon: Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen und Sammlungen von 16.Jahrhundert bis zur Gegenwart. – München: C.H. Beck Verlag, 2022. – S. 79. Keyingi o’rinlarda ham nemischa maqollarning olingan manbasi ushbu asar hisoblanadi.

[23] Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – B. 58. Keyingi o‘rinlarda ham o‘zbekcha maqollarning olingan manbasi ushbu asar hisoblanadi.

shunday bo‘lishi, tarbiya ko‘rish, kuzatish, taqlid asosida shakllanishi va yomon odatlar avloddan-avlodga o‘tishi aks ettiriladi. Shu bilan birga o‘zbek tilidagi *Onasini ko‘rib qizini ol* yoki *Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratli bo‘lar* maqollari ham tarbiya orqali farzandning gender va ijtimoiy xatti-harakati, odat va ma‘suliyatini belgilashini ko‘rsatadi.

“Tarbiya va odat” tematik guruhi konseptual metaforalari til orqali fikrlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Nemis va o‘zbek tillarida tarbiya va odatga doir konseptual metaforalarning voqelanishida ota-onaning roli quyidagi maqollarda o‘z aksini topadi: Masalan, nemis tilida: *Was der Vater tut, das tut auch der Sohn (Qush uyasida ko‘rganini qilar)* maqoli ota-onalar xulq-atvorining farzandlarga qanday ta‘sir ko‘rsatishini anglatadi. Ota asosan farzandning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi va bu maqolda erkakning tarbiyaviy roli va ma‘suliyati yuqori ta‘kidlanmoqda.

Wie die Mutter, so die Tochter (Onasini ko‘rib, qizini ol) maqolida onaning qiz farzand tarbiyasidagi asosiy manba ekanini, qizning xarakteri, odobi va turmushga munosabati asosan onasidan o‘tishini ta‘kidlaydi. Maqol tarbiyaning amaliy yo‘l bilan ya‘ni namuna ko‘rsatish orqali shakllanishini ko‘rsatadi. Bu maqol o‘zbek tilidagi *Onasini ko‘rib, qizini ol* degan maqol bilan to‘liq mos keladi, chunki har ikkala tilda ham qizning xarakteri va odati onaning fe‘l-atvori haqidagi tasavvurni beradi.

Des Vaters Schritte sind des Sohnes Tritte (Ot izini toy bosar)- maqol avlodlar o‘rtasidagi hayot qoliplari, xulq-atvor va tajribalarning o‘tish jarayonini chuqur tushuntirib beradi. Shuningdek, ota va bola o‘rtasidagi tarbiyaviy bog‘liqlik va otaning tarbiyaviy ta‘siri ta‘kidlanadi. Ota o‘g‘il uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, o‘g‘il esa ota o‘rgatgan odatlar, qadriyatlar va xulq-atvorni o‘ziga singdirib, uni kelajakda davom ettiradi.

O‘zbek tilida: *Daraxtiga ko‘ra - mevasi, ota-onasiga ko‘ra - bolasi* Maqol tarbiya va oilaviy muhit farzandning kelajakdagi xulqini belgilashini, farzand ota-onaning xulqi va qadriyatlarining “mevasi”ekanligini anglatadi. *Otasi buzuqning biri buzuq, onasi buzuqning bari buzuq*. Bu yerda farzandning xulqi va odati ota-onaning xulqi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi, farzand ota-onaning xulqini ko‘chirishi nazarda tutiladi. *Onadan ko‘rgan to‘n bichar, otadan ko‘rgan o‘q yo‘nar.* Maqol farzand ota-onadan ularning odatlari va hunarlarini o‘rganishini, ota-onaning farzand tarbiyasidagi o‘ziga xos rollarini anglatadi. *Otasini so‘rasang - Ahmadi forig‘, onasini so‘rasang - tovoni yoriq***.** Ushbu maqol, bolalarning xulq-atvori va xarakteri ota-onalarining tarbiyasiga bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi. *Odobli o‘g‘il - ko‘kdagi yulduz, odobli qiz - yoqadagi qunduz* maqoli o‘zbek xalq og‘zaki ijodida tarbiya va odobning ahamiyatini ta‘kidlaydi. Ushbu maqol, odobli og‘il-qizlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va qadriyatlarini aks ettiradi.

Yuqoridagi “tenglik va tengsizlik”,“tarbiya va odat”, “oila” kabi tematik guruhlarga mansub bo‘lgan nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid maqollarni ko‘rib tahlil qilindi. Ushbu tahlil asosida quyidagi nemis va o‘zbek tillarida

konseptual metaforalarning madaniy va ijtimoiy qarashlar asosida metaforik tarzda shakllanganini yaqqol ko'rish mumkin.

2.1-jadval.

Nemis va o'zbek tillarida genderga oid konseptual metaforalarning tematik guruhlarda voqelanishi

O'zbek tilida	**Konseptual metafora**	**Nemis tilida**	**Konseptual metafora**
Erkak	Boquvchi	der Mann (erkak)	Der Ernährer (boquvchi)
Erkak	Uy egasi	der Mann (erkak)	Der Fels (qoya)
Erkak	Kuch	der Mann (erkak)	Die Stärke (kuch)
Ayol	Noziklik	die Frau(ayol)	Die Zerbrechlichkeit (noziklik)
Ayol	Uy bekasi	die Frau(ayol)	der Hals (bo'yin)

Umuman olganda, tahlil natijalari nemis va o'zbek maqollarida genderga doir metaforik modellar jamiyatning tarixiy shakllangan tasavvurlarini saqlab qoluvchi, ijtimoiy rollarni tartibga soluvchi hamda ularni kognitiv darajada davom ettiruvchi vosita sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi. Mazkur maqollar til orqali gender haqidagi qarashlarning shakllanishi, saqlanishi va uzatilishida muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Nemis va o'zbek tillaridagi gender komponentli frazeologizmlarda konseptual metaforalar"** deb nomlanadi. Gender ta'limoti jamiyatda mavjud bo'lgan ayollar va erkaklar, ular o'rtasidagi farqlar, bu ikki jins vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi. Gender rolining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ijtimoiy jihatdan ajratilgan jinsi tufayli odamlarga yo'naltirilgan ijtimoiy mushtarak xulq-atvorga bo'lgan e'tibordir.[24] Masalan, o'zbek xalqi hamma zamonlarda ham ayol kishiga katta bir hurmat, ehtirom sifatida qaragan. Ayniqsa, ayol kishi *mo'tabar ona, rafiqa, uy bekasi*dir. *Ayolning sarishtasi-ro'zg'orning farishtasi; Ona daraxt-bola meva; Xotin erga oyna; Ona mehribon-ota g'amguzor*. O'zbek xalqi erkak kishilarni har doim mardlik, jasorat, sadoqat, uy-ro'zg'orning ustuni, farzandlariga namunali ota timsoli sifatida tariflaydi. *Er bor yerda zo'r bor; Erning ishin el bilar; Er yigit elga tortar; Ota g'ayratli bo'lsa, bola ibratli bo'lar; Erning otini el chiqarar; Eringga yoqding, elingga yoqding*.

Nemis xalqi ham ayol kishini go'zallik, nafosat, noziklik timsoli sifatida xalq maqollarida gavdalantiradi. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. *Das Haar einer Frau ist ihre krönende Schönheit (Ayolning sochi - toji); Hübsche Frauen altern nicht, denn sie können nur bis dreißig zählen*

[24] Alfermann. D. Geschlechterrollen und geschlechtstypisches Verhalten. 1. Auflage. – Stuttgart: Kohlhammer, 1996. – S. 134.

(Chiroyli ayol qarimaydi, u o‘ttizdan oshib sanay olmaydi); Frauen haben langes Haar und kurzen Sinn (Sochi uzun, aqli kalta); Die gut aussehende Frau braucht keine Schminke (Chiroyli qizga bo‘yoq kerak emas); Des blinden Mannes Frau braucht keine Schminke (Ko‘rning xotini bo‘yanmaydi).

Erkak kishilar esa odatda maqollarda aql va tashqi ko‘rinish jihatidan tasvirlanadi. Masalan: *Ein hässlicher Mann findet eine schöne Frau (Xunuk erning ham chiroyli xotini bo‘ladi); Lieber einen Mann ohne Geld als das Geld ohne einen Mann*[25] *(Erkaksiz puldan pulsiz erkak yaxshidir)*.

Quyida KELIN — OILA MULKI konseptual metaforasining nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda voqelanishining qiyosiy-tipologik tahlili orqali kelin obrazining turli tillarda qanday shakllanishi va tasvirlanishi o‘rganiladi. Aksariyat madaniyatlarda kelin qadrlanadigan, ammo ba‘zida buyum sifatida ham talqin qilinadigan obraz bo‘lib, bu uning ijtimoiy roliga va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan qarashni aks ettiradi.


Masalan, nemis tilida *Der glücklichen Braut regnet es in den Schoß (Omadli kelinning hayotiga hamma yaxshilik yog‘adi)* maqolida *kelin* metaforik jihatdan ijobiy hodisalarni qabul qiluvchi subyekt sifatida tasvirlangan. Shuningdek, kelin o‘z hayotida baxt, omad, boylik va farovonlikni qabul qiladigan shaxs sifatida markaziy o‘rinda turadi. O‘zbek tilida: *Kelin kirgan uyga nur kirar* maqoli kelinning oilaga kiritadigan ijobiy ta‘sirini, ya‘ni uyga baxt, tinchlik, farovonlik va baraka olib kirishini ifodalaydi. *Kelin - qaynona supurgisi* maqolida esa kelinning oiladagi ijtimoiy va amaliy rolini metaforik tarzda ifodalaydi. Shuningdek, maqolning axloqiy va ijtimoiy ma‘nosi kelinning oiladagi vazifalarini bajarishdagi mas‘uliyatini ta‘kidlashdan iborat.

Shu bilan birga AYOL–QUVONCH konseptual metaforasi nemis va o‘zbek tillaridagi paremiyalarda yaqqol voqelanishi kuzatiladi. Masalan, nemis tilida: *Eine gute Frau ist Segen fürs Haus (Yaxshi ayol – uy barakasi)* maqoli uyda yaxshi xotin mavjud bo‘lsa, uning uy va oilaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, ya‘ni u uyga baraka, farovonlik va tinchlik olib kirishini anglatadi. O‘zbek tilida: *Yaxshi xotin - uyga nur* maqolida ayol obraziga quvonch va baxt manbai sifatida qaraladi. Maqol metaforik tarzda ayolni oilaning ruhiy markazi va baxt yaratadigan kuchi sifatida talqin qiladi. Bu yerda “uyga nur kiradi” degan ibora quvonch va iliqlikning aniq ko‘rinishi sifatida ishlatiladi. *Uy bekasi yaxshi bo‘lsa, uyda baraka bo‘ladi* maqolida ayol oiladagi quvonch va farovonlikning markaziy manbai sifatida tasvirlanadi. “Uyda baraka bo‘lishi” ayolning mehribonligi, oqilligi va mas‘uliyatini aks ettiruvchi metafora hisoblanadi. Bu yerda “baraka” tushunchasi nafaqat moddiy farovonlik, balki ruhiy iliqlik, quvonch va oilaviy uyg‘unlikni ham bildiradi.

Tadqiqotda giperonim va giponim munosabatlar har ikki tilning semantik ierarxiyasi va konseptual tizimini tahlillar asosida aniqlashga imkon berdi. Giperonim sifatida “hayvon” konsepti inson xulqining hayvonlar olamiga xos

[25] Duden: Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 2008. – S. 23.

belgilar bilan qiyoslasa, giponimlar orqali ayol obrazining ma‘lum xususiyatlari, ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlari tasvirlanadi. Semantik ko‘chish jarayonida hayvonning tabiatiga xos belgilar ayolning xarakteri yoki jamiyatdagi roli bilan birlashtiriladi va natijada konseptual metafora shakllanadi. Masalan, nemis tilida: *schlau wie ein Fuchs*[26] *(tulki kabi ayyor)* frazeologizmi hayvonlar olamidan olingan metaforik birlik bo‘lib, u insonning ko‘pincha ayolning aqliy chaqqonligi, hiylakorligi yoki tezkor fikrlashini ifodalashda qo‘llanadi. O‘zbek tilida *tulki* – ayyor, makkora, hiylagar ayolni ifodalaydi. *Tulki ayol*, *tulki qiz*, *tulkidek ayol*[27] iboralari kundalik nutqda o‘ta keng tarqalgan. *Ilon* – zaharli, yovuz, xoin va xavfli ayol timsoli. *Sichqon* – qo‘rqoq, jimjit, o‘zini yo‘qotgan ayol. *Sichqoncha qiz, sichqondek qo‘rqoq* kabi iboralar ishlatiladi. Quyida Ayol konseptining hayvon obrazlarida metaforik ifodalanishining farqlari taqqoslanadi.



3.1-rasm. Ayol konseptining hayvon obrazlarida metaforik ifodalanishining nemis va o‘zbek tillarida taqqoslanishi

Ushbu rasmda Ayol konseptining hayvon obrazlarida metaforik ifodalanishining o‘zbek va nemis tillaridagi giperonim va giponimlar misolida ifodalanish farqlari 1–10 ballik shkalada grafik tarzda taqqoslangan. O‘zbek tilida (sariq ustunlar) metafora ko‘pincha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, salbiy va kamsituvchi xarakterga ega; salbiy hayvon tasvirlari (tulki, ilon, chayon, qarg‘a, maymun, tuya) juda faol, ijobiylari esa juda kam. Nemis tili (ko‘k ustunlar): metafora bilvosita, ko‘proq estetik va neytral, ijobiy (mushuk, oqqush, kapalak, tovus); ochiq kamsitish deyarli yo‘q, salbiy misollar ham kulgili-yengil ohangda. O‘zbek tilida metafora an‘anaviy gender stereotiplarni ochiq mustahkamlasa, nemis tilida zamonaviy gender-neytrallik va yumshoq tasvirlash hukmronlik qiladi.

[26] Duden: Redewendungen: Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. – Mannheim: Dudenverlag, 2008. – S. 113.
[27] Begmatov E. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tom. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 45.

Shu o‘rinda ERKAK–USTUN konseptual metaforasi paremiologik fondda oila va jamiyat tuzilishidagi erkakning struktural yetakchiligi, mas‘uliyat markaziligi va barqarorlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, nemis tilida: *Der Mann schützt das Haus, die Frau erhält den Frieden darin (Erkak oilaning tayanchi va himoyachisi, ayol esa undagi tinchlik va uyg‘unlikning manbai)* maqoli erkak va ayolning oiladagi mutanosib rollarini metaforik tarzda ifodalovchi birlikdir. Maqolning birinchi qismi *der Mann schützt das Haus* erkakni oilaning tashqi himoyachisi va barqarorlikni ta‘minlovchi ustun sifatida talqin qiladi. Ikkinchi qism *die Frau erhält den Frieden darin* ayolni oilaning ichki muhitini himoya qiluvchi, uyda tinchlik, uyg‘unlik va ruhiy barqarorlikni saqlovchi markaz sifatida ko‘rsatadi. O‘zbek tilida: *Erkak - uyining tog‘i, ayol - uning ichidagi bulog‘i.* Bu yerda *tog‘* obrazi *barqarorlik, qudrat va tayanch* ma‘nolarini ifodalaydi; u erkakning oiladagi *mustahkamlik, himoya va mas’uliyat* kabi vazifalarni ramziy tarzda ko‘rsatadi. *Buloq* esa *hayotbaxshlik, poklik va tinchlik manbai* sifatida talqin qilinib, *ayol*ning oilaviy muhitni *mehr, nafosat va ruhiy uyg‘unlik* bilan boyituvchi rolini ifodalaydi. Maqol tarkibidagi bu ikki obraz o‘zaro komplementar gender modeliga asoslanadi: erkak tashqi barqarorlikning, ayol esa ichki hayotiylik va uyg‘unlikning ramzi sifatida ko‘riladi.

Shu bilan birga nemis va o‘zbek tillarida Erkak konseptining hayvon obrazlari asosida konseptual metaforaning komparativ frazeologik birliklarda ifodalanishida bir qator madaniy xosliklar aniq kuzatiladi. Nemis tilida erkakka xos fazilatlarni hayvonlar obrazi orqali ifodalash keng tarqalgan bo‘lib, bu yerda eng faol birikma “wie ein …” tarkibi hisoblanadi. Nemis tilidagi komparativ frazeologik birliklar asosan kuch, qo‘pollik, jizzakilik, g‘azab va axloqiy kamchiliklarni ifodalashga moyil bo‘ladi. Kuch, baquvvatlik va chidamlilik *stark wie ein Bär* (*ayiqdek kuchli*) va *kräftig wie ein Stier* (*buqadek baquvvat*) , *arbeiten wie ein Pferd (otdek ishlamoq), (beißen wie ein Hund (itdek qattiq kurashmoq, tishlamoq), kämpfen wie ein Löwe (sherday kurashmoq)* kabi frazeologizmlar orqali beriladi. Bu birliklar erkakning kuchli tanasi, chidamliligi va baquvvatligini hayvonlar obrazi orqali kuchaytiradi.

G‘azab, tajovuskorlikni ifodalovchi birliklar sifatida *wütend wie ein Stier (buqadek g‘azablangan), brüllen wie ein Löwe (sherdek baqirmoq), aussehen oder handeln wie ein Wolf (bo‘ridek ko‘rinmoq yoki harakat qilmoq)* kabi birikmalar uchraydi. Bu misollarda *sher* va *buqa, yovvoyi hayvon va bo‘ri* obrazlari erkakning jangovar ruhini, keskin g‘azabini tasvirlaydi.


O‘zbek tilida esa erkak obrazini ifodalovchi komparativ frazeologik birliklar, odatda, jasurlik, kuchlilik, epchillik, qudrat, shafqatsizlik va qo‘pollik kabi fazilatlarni hayvon obrazi bilan qiyoslash orqali yuzaga keladi. Bunday birliklar xalqning erkakka oid milliy-madaniy tasavvurlari, an‘anaviy erkaklik modeli va uning jamiyatdagi roliga doir qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

Avvalo, erkakning kuchi va jasurligini ifodalovchi frazeologizmlar orasida *sherdek jasur, arslondek kuchli, arslonday baquvvat* kabi birliklar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular mardlik, qo‘rqmaslik va himoyachilik kabi an‘anaviy


erkak fazilatlarini ta‘kidlaydi. *Arslonday baquvvat* birikmasi esa jismoniy qudratning eng yuqori darajada namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bu kabi birikmalarda yirtqich hayvonlar obrazi erkakning kuch-qudratini kuchaytirib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

O‘zbek tilida erkakka nisbatan agressivlik yoki shafqatsizlikni ifodalovchi komparativ birliklar ham uchraydi. *Bo‘ridek yovuz, itdek o‘jar, fildek g‘azablangan, ayiqday qo‘pol, qoplondek otilmoq, qo‘chqordek qaysar* kabi iboralar salbiy ma‘noga ega bo‘lib, erkakning qo‘polligi, tajovuzkorligi yoki o‘jarligi kabi nojo‘ya xususiyatlarini bildiradi. Bu birliklar hayvonlarning tajovuzkor tabiati bilan bog‘liq holda erkakning salbiy xarakter sifatlarini kuchaytiradi.

Mazkur tadqiqotda genderga oid konseptual metaforalarning assotsiativ xususiyatlarini aniqlash maqsadida ikki bosqichli assotsiativ eksperiment o‘tkazildi. Unda Berlin shahridagi Gyote-Institutning 100 nafar talabasi hamda O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 3-bosqichida tahsil olayotgan 100 nafar talaba, jami 200 nafar respondent ishtirok etdi. Respondentlar maqsadli tanlanma asosida jalb qilindi. Eksperimentning asosiy maqsadi nemis va o‘zbek tillarida gender konseptlarining assotsiativ mazmuni hamda ularning konseptual-metaforik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan aniqlashdan iborat bo‘ldi. Eksperimentning birinchi bosqichida erkin assotsiatsiya usuli qo‘llanilib, respondentlarga “Ayol”, “Erkak”, “Kelin” va “Qiz” kabi stimullar alohida taqdim etildi. Respondentlardan har bir stimul ta’sirida xayoliga birinchi kelgan assotsiativ birlikni yozish so‘raldi. Javoblarning tezkorligi va spontanligi asosiy metodik mezon sifatida belgilandi. Olingan assotsiativ birliklar semantik jihatdan guruhlanib, ular asosida gender tasavvurlari va konseptual-metaforik modellar aniqlandi.



3.2.8- rasm. “AYOL/FRAU” konseptiga nisbatan assotsiativ birliklarning qo‘llanish darajasi



3.2.9- rasm. “ERKAK/MANN” konseptiga oid assotsiativ birliklarning o‘zbek va nemis respondentlari kesimidagi qiyosiy ko’rsatkichi

Eksperimentning ikkinchi bosqichida genderga oid 5 ta xalq maqoli tajriba materiali sifatida tanlanib, respondentlarning maqol kontekstida gender mazmunini qanday konseptual metaforalar orqali idrok etishi aniqlandi. Har bir maqol alohida taqdim etilib, undan so‘ng respondentlardan xayoliga birinchi kelgan genderga oid konseptual metaforani spontan ravishda yozish so‘raldi. Masalan, “AYOL – GUL”, “ERKAK – TOG‘”, “AYOL – MEHR”, “ERKAK – HIMOYA” kabi metaforik birliklardan birini qayd etish talab qilindi. Mazkur bosqichda tayyor metaforik tahlil emas, balki maqol mazmuni ta’sirida shakllangan spontan assotsiatsiyalar o‘rganildi. Natijada respondentlarning gender konseptlarini xalq maqollarida aks etgan milliy-madaniy mazmun bilan bog‘lash xususiyatlari aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, ikki bosqichli assotsiativ eksperiment natijalari nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid konseptual metaforalarning shakllanishida umuminsoniy tajriba bilan bir qatorda milliy-madaniy omillar, ijtimoiy rollar, oilaviy qadriyatlar va gender stereotiplari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Har ikki tilda AYOL – ONA, AYOL – GO‘ZALLIK, ERKAK – KUCH, ERKAK – HIMOYA, KELIN – OILA, QIZ – GUL kabi umumiy metaforik modellar aniqlanib, gender konseptlarining universal jihatlari namoyon bo‘ldi. Qiyosiy tahlil esa lingvomadaniy farqlarni ham ko‘rsatdi. Nemis respondentlarida ayol sevgi, tinchlik, uyg‘unlik va oila, erkak esa kuch, himoya, yetakchilik va tayanch bilan bog‘langan. O‘zbek respondentlarida ayol va qiz ona, gul, mehr, noziklik va oila, erkak kuch, himoya va mustahkamlik, kelin esa uy, oila va mas’uliyat tushunchalari orqali konseptuallashgan. Maqol asosidagi bosqichda esa gender metaforalari kontekst ta’sirida yanada aniq va stereotipik shaklda namoyon bo‘ldi. Nemis respondentlarida erkak – himoyachi, yetakchi; ayol – tinchlik, oila markazi, mehr, o‘zbek respondentlarida esa *kelin – yig‘i, g‘am; ayol – xiyla, ta’sir kuchi;* xotin – tayanch, mas’uliyat; qiz – turmush, oila kabi modellar ustunlik qildi.

Assotsiativ yondashuv genderga oid konseptual metaforalarning kognitiv, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beruvchi samarali metod ekanligini tasdiqladi.

UMUMIY XULOSA

Nemis va o‘zbek tillarida genderga oid frazeologizmlarda konseptual metaforaning voqelanishi ustida olib borilgan tahlillar quyidagicha xulosalar qilish imkonini beradi:

1. Tadqiqot natijasida frazeologik birliklar va maqollar inson tafakkuri, milliy-madaniy tajriba hamda ijtimoiy qadriyatlarning til tizimidagi kognitiv ifodasi ekanligi aniqlandi. Konseptual metaforalar orqali har bir xalqning olam haqidagi tasavvurlari, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlari tilda mustahkamlanishi isbotlandi.

2. Nemis va o‘zbek tillaridagi genderga oid frazeologizmlar hamda maqollarni tahlil qilishda kognitiv-semantik va lingvomadaniy yondashuvlarning samarali metod ekanligi asoslandi. Mazkur yondashuvlar orqali frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, metaforik motivatsiyasi va milliy-madaniy xususiyatlari ochib berildi.

3. Tahlil natijalari nemis va o‘zbek tillarida gender konseptlarining asosan “tenglik va tengsizlik”, “oila”, “ijtimoiy rol” kabi konseptual sohalar orqali ifodalanishini ko‘rsatdi. Erkak obrazi ko‘proq kuch, hokimiyat va faoliyat bilan, ayol obrazi esa mehribonlik, oilaviylik va g‘amxo‘rlik bilan bog‘langan konseptual modellar asosida shakllanishi aniqlandi.

4. Qiyosiy tahlil natijasida nemis va o‘zbek tillaridagi gender metaforalarida umumiy va farqli jihatlar mavjudligi belgilandi. Umumiy jihatlar inson tajribasiga asoslangan universal konseptual modellar bilan bog‘liq bo‘lsa, farqlar milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tajriba ta’sirida yuzaga kelishi aniqlandi.

5. Oila konsepti doirasidagi metaforalarni tahlil qilish natijasida o‘zbek tilidagi birliklarda an’anaviy oilaviy qadriyatlar va hissiy-obrazlilik, nemis tilidagi birliklarda esa tartib, mas’uliyat va ijtimoiy munosabatlarning tizimliligi ustuvor ekanligi aniqlandi.

6. Maqollar tahlili natijasida nemis va o‘zbek xalq maqollarida gender stereotiplari konseptual metaforalar orqali shakllanishi va avloddan avlodga uzatilishi ko‘rsatildi. Maqollar nafaqat xalq tajribasini aks ettiruvchi birliklar, balki genderga oid kognitiv modellarni saqlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

7. Qiyosiy-tipologik tahlil asosida “KELIN — OILA MULKI”, “AYOL — QUVONCH” kabi kognitiv modellar hamda ayol va erkak obrazlarining hayvonlar orqali metaforik ifodalanishida o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Ushbu farqlar ikki xalqning gender munosabatlari va madaniy qadriyatlaridagi o‘ziga xosliklarni aks ettirishi belgilandi.

8. Erkak konseptining metaforik ifodalanishi tahlili natijasida o‘zbek tilidagi ayrim birliklarda erkakning an’anaviy ijtimoiy mavqei kuchliroq aks etishi, nemis tilida esa zamonaviy gender qarashlari ta’sirida ayrim metaforalarning qayta talqin qilinishi kuzatildi.

9. Assotsiativ tajriba nemis va o‘zbek respondentlari ongida gender konseptlarining shakllanishi, ular bilan bog‘liq assotsiativ birliklar hamda konseptual-metaforik modellarni aniqlash va ularning universal hamda milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga xizmat qildi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

ДЖУРАХОЛОВА БАХОРА КУРБОНБОЕВНА

РЕАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ МЕТАФОР В ГЕНДЕРНО МАРКИРОВАННЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
Диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована за номером B2025.1PhD/Fil5667 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Эргашева Гули Исмаил кизи** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Кодирова Фазилат Шукуровна** доктор филологических наук, профессор
	Назаров Сардор Хасанович доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент.
Ведущая организация:	**Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни.**

Защита диссертации состоится «____»_____2026 года в _____часов на заседании Научного совета DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, г. Ташкент., ул. Малая кольцевая дорога, д. 21. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230–12–92; e–mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована под номером _____). Адрес: 100138, г. Ташкент., ул. Малая кольцевая дорога, д. 21. Тел.: (71) 230-12-91; факс: (99871) 230–12–92.

Автореферат диссертации разослан «____» _____ 2026 года.

(Реестр протокола рассылки № ____ от «____» _____ 2026 года).

А.А.Насиров
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Х.Б.Самигова
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

Ж.А.Якубов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой лингвистике изучение феномена метафоры является важным средством выявления национально-культурных особенностей того или иного народа. Несмотря на то что метафора на протяжении длительного времени находилась в центре внимания философии, литературы и лингвистики, её активное исследование в практике фразеологического дискурса порождает ряд вопросов. Получение ответов на эти вопросы с позиций традиционного изучения метафоры затруднено, поскольку метафора часто рассматривается лишь как языковое средство выразительности. В рамках антропоцентрической парадигмы, напротив, метафора выступает как средство выражения особенностей языкового мышления, основанного на культурном фоне, и даже как инструмент познания. В связи с этим в мировой лингвистике интенсивно развиваются такие направления, как сопоставительная лингвистика, корпусная лингвистика и когнитивная лингвистика, что придаёт данной проблематике особую значимость.

В мировой лингвистике также важное место занимает изучение реализации концептуальной метафоры в гендерно маркированных фразеологизмах. В частности, на материале немецкого языка проведён ряд результативных исследований в рамках гендерной лингвистики, причём отмечается их постоянное обновление и развитие. Настоящее исследование выполнено в русле когнитивной парадигмы, в которой языковая форма рассматривается как отражение когнитивных структур. С этой точки зрения важным является изучение метафоры как универсального когнитивного механизма, основанного на тесной взаимосвязи когнитивных процессов и языковых структур. Такой подход позволяет исследовать явления, происходящие в человеческом сознании, которые не поддаются непосредственному наблюдению и связаны с восприятием и осмыслением окружающей действительности. Кроме того, актуальным является проведение научных исследований, направленных на изучение концептуальных систем, формирующихся в сознании человека и отражающих реальный мир, а также на выявление концептуальных картин мира, общих для представителей определённой культуры.

В нашей стране с учётом духовных, национально-культурных и общечеловеческих факторов современного узбекского языкознания особое внимание в сфере науки и образования уделяется **развитию изучения иностранных языков как приоритетного направления образовательной политики**. В таких областях, как когнитивная лингвистика, лингвокультурология и социолингвистика, интенсивно развивается углублённое изучение иностранных языков. При этом, поскольку когнитивная лингвистика является одной из основных сфер исследования языковой структуры, изучение языка, его богатого метафорического фонда как концептуального и национально-культурного средства познания человека и его картины мира выступает одним из приоритетных направлений.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-5117 «О мерах по выводу деятельности по расширению изучения иностранных языков в Узбекистане на качественно новый уровень»[1] от 19 мая 2021 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПҚ-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, а также Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 610 «О мерах по дальнейшему повышению качества изучения иностранных языков в образовательных учреждениях» от 11 августа 2017 года и других нормативно-правовых актах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики, а именно: «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

1. **Степень изученности проблемы.** Фразеологические единицы на протяжении многих лет изучаются в языкознании в качестве самостоятельного объекта исследования. В частности, теоретические и практические основы узбекской фразеологии освещены в научных трудах Ю.Д. Поливанова, Ш.У. Рахматуллаева, Ю.Д. Пинхасова, А.Ш. Шомаксудова, А. Бушуя, М. Умарходжаева, А. Яхшиева, З. Садикова, А.Э. Маматова, Б. Йулдашева, Ш. Имяминовой, Г.М. Умаржоновой, Х.Т. Нуруллаева и других учёных[2].

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish choralari to‘g‘risida” gi PQ-5117 Qarori./ https: //lex.uz/docs/-5431845.

